

MECHANISMS IMPLEMENTED BY THE CENTRAL BANK FOR MANAGING INFLATION RATES AND GLOBAL EXPERIENCE

Panjieva Obodoy Hayit qizi

Master's student at the Banking and Finance Academy

ORCID: 0009-0006-7643-6590

Obodoikhon0395@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15083682>

ARTICLE INFO

Received: 19th March 2025

Accepted: 24th March 2025

Online: 25th March 2025

KEYWORDS

Inflation, Central Bank, monetary policy, interest rates, money supply, monetary policy, price stability, exchange rate, liquidity, economic growth, credit market, inflationary expectations, deflation, economic stability, open market operations, banking system, deposit policy, commercial banks, money emission.

ABSTRACT

This article analyzes the main mechanisms and world experience used by the Central Bank to manage the inflation rate. Measures implemented within the framework of the Central Bank's monetary policy, including interest rates, money supply control, currency interventions, and inflation targeting methods, are studied. The experience of developed and developing countries in stabilizing inflation is also analyzed and effective methods are compared. This article also considers factors affecting the inflation rate, including global economic processes, supply and demand balance, fiscal policy, and price formation mechanisms. At the same time, the monetary policy directions implemented by the Central Bank in the Republic of Uzbekistan are analyzed and their effectiveness is assessed. The results of the study will help develop practical recommendations for effective inflation management. The article is based on a scientific-analytical approach and may be useful for economists, financial regulators, and policymakers.

МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ УРОВНЕМ ИНФЛЯЦИИ, РЕАЛИЗУЕМЫЕ ЦЕНТРАЛЬНЫМ БАНКОМ, И МИРОВОЙ ОПЫТ

Панжиева Ободой Хайит кизи

Магистрант Банковско-финансовой академии

ORCID: 0009-0006-7643-6590. Obodoikhon0395@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15083682>

ARTICLE INFO

Received: 19th March 2025

Accepted: 24th March 2025

Online: 25th March 2025

KEYWORDS

Инфляция, Центральный банк, денежно-кредитная политика, процентные ставки, денежная масса,

ABSTRACT

В данной статье будут проанализированы основные механизмы, используемые Центральным банком в управлении уровнем инфляции, и мировой опыт. Будут изучены меры, принимаемые в рамках денежно-кредитной политики Центрального банка, включая процентные ставки, контроль денежной массы, валютные интервенции и методы таргетирования инфляции. Также анализируется опыт развитых и



монетарная политика, стабильность цен, обменный курс, ликвидность, экономический рост, кредитный рынок, инфляционные ожидания, дефляция, экономическая стабильность, операции на открытом рынке, банковская система, депозитная политика, коммерческие банки, денежная эмиссия.

развивающихся стран по стабилизации инфляции, сравниваются между собой эффективные методы. Также в данной статье будут рассмотрены факторы, влияющие на уровень инфляции, в том числе глобальные экономические процессы, баланс спроса и предложения, Фискальная политика и механизмы ценообразования. При этом анализируются направления монетарной политики, проводимой центральным банком в Республике Узбекистан, и оценивается их эффективность. Результаты исследования помогут разработать практические рекомендации по эффективному управлению инфляцией. Статья основана на научно-аналитическом подходе и может быть полезна экономистам, финансовым регуляторам и политикам.

INFLYATSIYA DARAJASINI BOSHQARISHDA MARKAZIY BANKNING AMALGA OSHIRAYOTGAN MEXANIZMLARI VA JAHON TAJRIBASI

Panjiyeva Obodoy Hayit qizi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

ORCID: 0009-0006-7643-6590. Obodoykhon0395@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15083682>

ARTICLE INFO

Received: 19th March 2025

Accepted: 24th March 2025

Online: 25th March 2025

KEYWORDS

Inflyatsiya, Markaziy bank, pul-kredit siyosati, foiz stavkalari, pul massasi, monetar siyosat, narx barqarorligi, valyuta kursi, likvidlik, iqtisodiy o'sish, kredit bozori, inflyatsion kutilmalar, deflyatsiya, iqtisodiy barqarorlik, ochiq bozor operatsiyalari, bank tizimi, depozit siyosati, tijorat banklari, pul emissiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada inflyatsiya darajasini boshqarishda Markaziy bank tomonidan qo'llanilayotgan asosiy mexanizmlar va jahon tajribasi tahlil qilinadi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati doirasida amalga oshirilayotgan choralar, jumladan, foiz stavkalari, pul massasi nazorati, valyuta intervensiyalari hamda inflyatsion targetlash usullari o'rganiladi. Shuningdek, inflyatsiyani barqarorlashtirish bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribasi tahlil qilinib, samarali usullar o'zaro taqqoslanadi. Shuningdek, mazkur maqolada inflyatsiya darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, global iqtisodiy jarayonlar, talab va taklif muvozanati, fiskal siyosat va narx shakllanish mexanizmlari ham ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan monetar siyosat yo'nalishlari tahlil qilinib, ularning natijadorligi baholanadi. Tadqiqot natijalari inflyatsiyani samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda yordam beradi. Maqola ilmiy-tahliliy yondashuvga asoslangan bo'lib, iqtisodchilar, moliyaviy regulyatorlar va siyosatchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.



KIRISH

Inflyatsiya iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning barqaror darajada ushlab turilishi iqtisodiy taraqqiyot va aholi farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyatsyaning haddan tashqari oshib ketishi narxlarning keskin o'sishiga, aholi real daromadlarining pasayishiga va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli, aksariyat davlatlar inflyatsiyani samarali boshqarish va uni maqbul darajada ushlab turish uchun turli mexanizmlarni qo'llaydilar. Ushbu jarayonda Markaziy bankning roli nihoyatda muhim bo'lib, u monetar siyosat vositalari yordamida inflyatsiyani nazorat qilishga harakat qiladi.

Markaziy bank inflyatsiyani boshqarish uchun asosan pul-kredit siyosati vositalaridan foydalanadi. Bu vositalarga foiz stavkalarini belgilash, ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish, tijorat banklariga qo'yiladigan rezerv talablarini tartibga solish va kreditlash hajmini nazorat qilish kabi choralar kiradi. Foiz stavkalari orqali iqtisodiyotdagi pul massasini boshqarish inflyatsiyani jilovlashning asosiy usullaridan biridir. Agar inflyatsiya ortib borsa, Markaziy bank foiz stavkalarini oshiradi, natijada kredit olish qimmatlashadi va iqtisodiyotdagi pul massasi kamayadi. Aksincha, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish maqsadida foiz stavkalari pasaytirilishi ham mumkin.

Dunyo tajribasiga nazar tashlaganda, rivojlangan mamlakatlarning markaziy banklari inflyatsiyani nazorat qilishda turli strategiyalardan foydalanayotgani kuzatiladi. Masalan, AQSh Federal Rezerv tizimi inflyatsion targetlash siyosatini yuritib, ma'lum bir inflyatsiya darajasini maqsad qilib qo'yadi va pul-kredit siyosatini ushbu maqsadga yo'naltiradi. Yevropa Markaziy banki ham inflyatsiya darajasini boshqarishda o'ziga xos yondashuvlarni qo'llaydi. Ularning asosiy maqsadi uzoq muddatli narx barqarorligini ta'minlashdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa inflyatsiya darajasini nazorat qilish qiyinroq bo'lishi mumkin, chunki ularning iqtisodiy tizimlari hali to'liq barqarorlashmagan va tashqi omillarga nisbatan sezgir hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ham inflyatsiyani boshqarish bo'yicha izchil choralar ko'rib kelmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda inflyatsion targetlash mexanizmi joriy etilib, uzoq muddatli barqaror inflyatsiya darajasiga erishish maqsad qilib qo'yildi. Shu bilan birga, pul-kredit siyosati takomillashtirilib, foiz stavkalari va bank tizimining likvidligi doimiy nazorat ostida ushlab turilmoqda. Markaziy bank inflyatsyaning asosiy omillarini chuqur tahlil qilib, iqtisodiy sharoitlarga mos choralarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda.

Umumiy qilib aytganda, inflyatsiya darajasini boshqarish Markaziy bankning eng muhim vazifalaridan biridir. Samarali pul-kredit siyosati orqali inflyatsiyani maqbul darajada ushlab turish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakat o'z iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda turli mexanizmlardan foydalanadi. O'zbekiston ham global tendensiyalarni hisobga olgan holda, Markaziy bank orqali inflyatsiyani boshqarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalgaga oshirib kelmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Inflyatsiya darajasini boshqarish bo'yicha ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar Markaziy bankning pul-kredit siyosati, inflyatsion targetlash va monetar reguliyatsiya masalalariga katta e'tibor qaratadi. Jahon miqyosida taniqli iqtisodchi olimlar inflyatsyaning nazariy va amaliy



jihatlarini tahlil qilib, uning iqtisodiyotga ta'siri hamda uni boshqarish usullari bo'yicha turli yondashuvlarni ilgari surganlar. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarning markaziy banklari inflyatsiyani nazorat qilish bo'yicha tajribalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy ishlar va statistik tahlillar mazkur mavzuni chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Inflyatsiya so'zi birinchi marta amerikalik iqtisodchi A.Delmar tomonidan 1864 yilda iqtisodiy oborotga kiritildi. Bunga AQSh Federal hukumati 1861-1865 yillarda mamlakat fuqarolar urushi davrida davlatning xarajatlarini qoplash maqsadida muomalaga juda katta miqdorda qog'oz pullami emissiya qilishi sabab boldi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiy adabiyotlarida inflyatsiya termini birinchi jahon urushidan keyin, sobiq ittifoq adabiyotlarida esa 1920 yillarning o'rtalaridan keng miqyosda paydo bo'ldi [3].

Inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri va uni nazorat qilish bo'yicha nazariy konsepsiylar J.M.Keyns, M.Fridman, F.Xayek kabi iqtisodchi olimlarning ishlarida keng yoritilgan. Ularning ta'kidlashicha, inflyatsiya pul massasining o'sishi, talab va taklif muvozanati hamda iqtisodiy barqarorlik bilan uzviy bog'liqdir [4]. Monetarizm nazariyasining asoschisi M.Fridman inflyatsiya doimo pul-kredit siyosatining natijasi ekanligini ta'kidlab, Markaziy bankning roliga alohida urg'u bergen. Uning tadqiqotlari inflyatsiyani uzoq muddatli boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Milton Fridman o'z asarlarida, xususan, "Qo'shma Shtatlarning pul tarixi, 1867-1960" kitobida AQShda inflyatsiyaning tarixiy tahlilini beradi va pul massasi o'sishi bilan inflyatsiya o'rtaqidagi bog'liqlikni olib beradi [5]. "Monetar siyosatning roli" maqolasida esa u monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'siri va inflyatsiyani boshqarish mexanizmlarini muhokama qiladi [6]. Fridmanning "Tanlash erkinligi" asarida u bozor iqtisodiyotining afzalliklarini va davlatning haddan tashqari aralashuvi inflyatsiyani kuchaytirishi mumkinligini tushuntiradi [7]. Uning tadqiqotlari inflyatsiyaning uzoq muddatli pul-kredit omillarga bog'liqligini isbotlashga qaratilgan bo'lib, u ushbu fikrlarini ko'plab maqolalarida ham isbotlab bergen.

A.S.Nurzhigitovaning ta'kidlashicha, "Markaziy banklarning asosiy funksiyalaridan biri inflyatsiya darajasini nazorat qilish bo'lib, bu jarayon iqtisodiy barqarorlik va pul-kredit siyosatining muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Inflyatsiya aholining yashash darjasini va xarid qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, tadbirkorlar uchun esa moliyaviy rejalar tuzishda muhim omil sanaladi. Shu boisdan, inflyatsiya darajasini boshqarish har bir mamlakat iqtisodiyotining strategik ustuvor yo'nalişlaridan biri hisoblanadi" [8].

Mahalliy olimlarimiz T.T.Jo'rayev va M.A.Hamdamovlarning fikricha, "Inflyatsiya – bu pul aylanish kanallarining ortiqcha pul massasi bilan to'lib ketishi oqibatida narxlar o'rtacha (umumiyl) darajasining ko'tarilib borishini va natijada milliy pul birligining qadrsizlanishi, ya'ni uning sotib olish layoqati pasayishini anglatadi. Inflyatsiya narx darajasining barqaror o'sishi sifatida namoyon bo'ladi. Bu barcha narxlarning bir vaqtida muqarrar o'sib borishini bildirmaydi. Narxlar nomutanosib o'sish tamoyiliga ega bo'ladi. Biri tez o'ssa, boshqasi ancha ma'yoriy sur'atda ortadi, uchinchisi umuman ko'tarilmaydi" [9].

Sh.Sh.Shodmonovning ta'kidlashicha, "Inflyatsiya deb pul muomalasi qonunlari buzilishi bilan bog'liq holda qog'oz pullarning qadrsizlanishiga aytildi. Bu yerda qog'oz pul miqdorining nisbatan ortib ketib, uning qadrsizlanishiga pulning ortiqcha emissiya qilinishi, pul emissiyasi o'zgarmasdan, uning aylanish tezligining oshishi, muomaladagi pul miqdori o'zgarmasa ham tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining kamayib ketishi, tovarlar va xizmatlar



ijtimoiy qiymatining va, binobarin, narxining pasayishi va nihoyat, pul qiymatining pasayishi kabi omillar ta'sir qiladi. Mana shu omillar yana bir bor inflyatsiya – tovarlar narxining o'sishidir, degan ta'rifning to'liq va yetarli emasligini ko'rsatadi" [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi inflyatsiya darajasini boshqarishda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan mexanizmlar va jahon tajribasini o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqot doirasida iqtisodiy tahlil, empirik ma'lumotlarga asoslangan yondashuv va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Markaziy bankning inflyatsiyani boshqarish bo'yicha qo'llayotgan mexanizmlarini o'rganish uchun uning rasmiy hisobotlari, pul-kredit siyosati bo'yicha nashr etilgan hujjatlar va xalqaro moliyaviy institutlarning tavsiyalari tahlil qilindi.

Empirik tahlil doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining so'nggi yillarda amalga oshirgan pul-kredit siyosati natijalari va ularning inflyatsiyaga ta'siri ko'rib chiqildi. Ushbu tahlilda inflyatsiyaning yillik darajasi, asosiy foiz stavkalarining dinamikasi va pul massasining o'zgarish tendensiyalari o'rganildi. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan kiritilgan islohotlarning inflyatsiyaga ta'siri baholandi.

Tadqiqotda, shuningdek, statistik tahlil va ma'lumotlarni modellashtirish usullaridan foydalanildi. O'zbekiston iqtisodiyotidagi inflyatsion jarayonlarning dinamikasini aniqlash uchun vaqt qatorlari tahlili va regressiya modellaridan foydalanildi. Ushbu usul yordamida inflyatsiyaga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi va ularning kelajakdagi dinamikasini prognoz qilishga harakat qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichlari mamlakatdagi narxlar barqarorligi, pul-kredit siyosati va iqtisodiy holatni baholash uchun muhim ahamiyatga ega. Inflyatsiya darajasi odatda iste'mol narxlari indeksi (INI) orqali o'lchanadi, bu esa aholi uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar narxining o'zgarishini aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" 154-I-sonli Qonuniga muvofiq, pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Markaziy bank pul-kredit siyosatini narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadidan kelib chiqqan holda ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Narxlar barqarorligi past va barqaror inflyatsiya darajasini anglatadi.

O'zbekistonda inflyatsiya darajasi mamlakat iqtisodiy hayotining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirgani bois, inflyatsiya darajasi turli omillarga bog'liq holda shakllanadi. Yurtimizda inflyatsiya dinamikasi so'nggi yillarda turli ichki va tashqi omillarga bog'liq holda o'zgarib kelmoqda. Mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlari davom etar ekan, inflyatsiya darajasi ham o'zgaruvchan bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Markaziy banki va Davlat statistika qo'mitasi har yili inflyatsiya ko'rsatkichlarini e'lon qilib, uning sabablarini tahlil qilib boradi. Mamlakatimizda o'tgan yildagi, ya'ni 2024-yildagi inflyatsiya dinamikasi quyidagi jadval orqali ifodalanishi mumkin (1-jadval):



1-jadval

2024-yildagi oylik inflyatsiya darajasi [11]

Nº	Oylar	O'tgan oyga nisbatan (%)	O'tgan yilning shu oyiga nisbatan (%)
1	Dekabr	1,0	9,8
2	Noyabr	0,9	10,0
3	Oktyabr	0,8	10,2
4	Sentyabr	1,2	10,5
5	Avgust	0,5	10,5
6	Iyul	-0,3	10,5
7	Iyun	-0,2	10,6
8	May	2,8	10,6
9	Aprel	0,9	8,1
10	Mart	0,7	8,0
11	Fevral	0,3	8,3
12	Yanvar	0,6	8,6

Yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlarga asoslangan holda shuni aytishimiz mumkinki, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasi turli oylarda o'zgarib borgan. Yil boshida inflyatsiya nisbatan past bo'lib, asta-sekin o'sib borgan. Aprel va may oylarida inflyatsiyaning sezilarli darajada oshishi kuzatilgan bo'lsa, yoz oylarida narxlar barqarorlashgan va hatto pasaygan holatlar ham kuzatilgan. Avgustdan boshlab inflyatsiya yana o'sishni boshlagan va yil oxirida 9,8% darajada qayd etilgan. Bu davrda inflyatsiyaning o'zgarishi mavsumiy omillar, iqtisodiy siyosat va bozor sharoitlariga bog'liq bo'lган. Yil davomida hukumatning pul-kredit siyosati ham narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, yil yakunida inflyatsiya nisbatan mo'tadillashgan.


So'nggi yillarda O'zbekiston Markaziy banki inflyatsiyani nazorat qilish va uni belgilangan target ko'rsatkichlarga moslashtirish maqsadida turli mexanizmlarni qo'llab kelmoqda. Jumladan, pul-kredit siyosati doirasida asosiy foiz stavkasini belgilash, bank tizimining likvidligini boshqarish va ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish kabi choralar ko'rilmoxda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga asosan inflyatsiya bo'yicha doimiy maqsad (target) 5 foiz etib belgilangan va ushbu maqsadga erishish vazifasi Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan.

Xalqaro tajriba bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri inflatsion targetlash rejimi ekanligini ko'rsatmoqda, bunda pul-kredit bozoridagi markaziy bankning faol ishtiroki, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning muntazam tahlili va davlat siyosati rejalarining keng yoritib borilishi inflatsiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, inflatsion targetlash rejimini joriy etish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Vazirlar Mahkamasining quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan muvofiqlashtirilgan tayyorgarlik ishlarini talab etadi:



- inflatsiyaning nomonetar omillari rolini bosqichma-bosqich pasaytirish, shu jumladan, tariflarni tartibga solishni isloq qilish, iqtisodiyotning real sektorida tarkibiy iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlash va ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish;
- Markaziy bankning makroiqtisodiy tahlil va kommunikatsiya siyosati sifatini oshirish;
- regulyatorning kredit bozoriga samarali ta'sir etishini ta'minlab beruvchi, pul bozorini tartibga solishning yangi instrumentlarini joriy etish [2].

Mamlakatimizda inflatsiyaning erishilishi lozim bo'lgan o'rta muddatli maqsadli ko'rsatkichi 5 foiz etib belgilandi va target darajasi keng jamoatchilikka (aholiga, biznes vakillariga va moliya bozori ishtirokchilariga) e'lon qilingan. Markaziy bank inflatsion targetlash rejimi doirasida iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi (1-rasm):



1-rasm. Markaziy bank inflatsion targetlash rejimi doirasida iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish tamoyillari [11]

Rasmida berilgan ma'lumotlar asosida aytishimiz mumkinki, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan barcha sa'y-harakatlar, chora-tadbirlar va pul-kredit sohasidagi qarorlar inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi – targetiga erishishga qaratiladi. Maqsadli ko'rsatkichiga erishilishi iqtisodiyot sub'ektlari tomonidan Markaziy bank faoliyatini baholash, umuman olganda, olib borilayotgan pul-kredit siyosatiga bo'lgan ishonch shakllanishining asosiy mezoni hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, makroiqtisodiy sohada qabul qilinayotgan barcha qarorlar inflatsion maqsadlar bilan uyg'un holda qabul qilinishi lozim. Markaziy bank faoliyatida inflatsiyaning target ko'rsatkichiga erishish vazifasi boshqa vazifalardan ustun hisoblanadi.



Markaziy banklar tomonidan samarali pul-kredit siyosatini yuritishda inflyasiya darajasini doimiy asosda har tomonlama tahlil qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyasiya keng ma'noda iqtisodiyotdagi narxlar oshishi darajasini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, uni hisoblash uchun amaliyotda bir necha usullardan foydalaniladi. Narxlar o'zgarishini kuzatib borish va inflyasiyani hisoblash davlat statistika organlari tomonidan amalga oshirilib, inflyasiyaning umum qabul qilingan asosiy ko'rsatkichi sifatida – iste'mol narxlari indeksi (INI), yalpi ichki mahsulot (YAIM) deflyatori hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi kabi narxlar indekslari orqali hisoblab boriladi [11].

Yuqoridagi tahlil ma'lumotlaridan aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsiya darajasini boshqarish uchun bir qator mexanizmlarni amalga oshirmoqda. Asosiy vositalardan biri – inflyatsion targetlash rejimi bo'lib, bu usulda inflyatsiya uchun aniq maqsad ko'rsatkichi belgilanadi va unga erishish uchun pul-kredit siyosati instrumentlari qo'llaniladi.

2020-yil 1-yanvardan boshlab, Markaziy bank pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tkazishni boshladi. Bu jarayonda 2021-yilda inflyatsiya darajasini 10 foizgacha pasaytirish va 2023-yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni o'rnatish rejalashtirilgan edi.

Inflyatsion targetlash rejimida asosiy instrumentlardan biri — Markaziy bank tomonidan belgilanadigan asosiy stavkadir. Markaziy bank asosiy stavkani o'zgartirish orqali tijorat banklari tomonidan omonat va kreditlar bo'yicha taklif etiladigan foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatadi, bu esa umumiyl talab orqali iqtisodiyotdagi narx darajasiga ta'sir qiladi.

Masalan, 2024-yil 12-dekabrda o'tkazilgan yig'ilishda, Markaziy bank boshqaruvi asosiy stavkani yillik 13,5 foiz darajasida saqlab qolish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qaror inflyatsion jarayonlarni va kutilmalarni barqarorlashtirish hamda o'rta muddatli istiqbolda inflyatsiya darajasini 5 foizlik maqsadga pasaytirishga zamin yaratish maqsadida qabul qilindi.

Shuningdek, Markaziy bank inflyatsion jarayonlarni boshqarish va pul bozorida foiz stavkalarini tartibga solish maqsadida pul-kredit siyosati bo'yicha instrumentlardan (REPO va valyutaviy svop auksionlari, depozit auksionlari hamda Markaziy bank obligatsiyalarini joylashtirish bo'yicha auksionlar) keng miqyosda foydalanadi.

Ushbu chora-tadbirlar orqali Markaziy bank inflyatsiya darajasini boshqarish va iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashga intilmoqda.

Inflyatsiya darajasini boshqarishda jahon tajribasiga nazar tashaydigan bo'lsak, bunda inflyatsiya darajasini boshqarish turli mamlakatlarning iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda shakllangan samarali mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar inflyatsiyani nazarat qilish uchun inflyatsion targetlash (maqsadli inflyatsiya) siyosatini qo'llaydi. Ushbu yondashuvda markaziy banklar inflyatsiyani muayyan darajada ushlab turish uchun foiz stavkalari, ochiq bozor operatsiyalari va boshqa moliyaviy instrumentlardan foydalanadi.

Masalan, AQSh Federal Rezerv Tizimi inflyatsiyani boshqarish uchun asosan foiz stavkalarini tartibga soladi. Agar inflyatsiya oshib ketsa, AQSh Federal Rezerv Tizimi asosiy stavkani ko'tarib, kredit olishni qiyinlashtiradi va iqtisodiy faollikni pasaytiradi. Aksincha, inflyatsiya juda past bo'lsa yoki deflyatsiya xavfi yuzaga kelsa, foiz stavkalari pasaytiriladi, bu esa iqtisodiyotga qo'shimcha likvidlik kiritib, talabni oshirishga xizmat qiladi.



Yevropa Markaziy banki ham inflyatsiyani nazorat qilishda shunga o'xshash yondashuvni qo'llaydi. Yevro hududida inflyatsiyani 2% atrofida ushlab turish maqsad qilib qo'yilgan. Yevropa Markaziy banki pul-kredit siyosati vositalari orqali bozor likvidligini tartibga soladi va iqtisodiyotning ortiqcha qizib ketishining oldini oladi.

Buyuk Britaniyaning Markaziy banki ham inflyatsion targetlash rejimini qo'llab, har oy inflyatsiya darajasi va iqtisodiy sharoitlarni tahlil qiladi. Agar inflyatsiya belgilangan chegaradan chiqsa, bank foiz stavkalarini moslashtirish orqali uni barqarorlashtirishga harakat qiladi.

Yaponiya Markaziy banki esa uzoq yillar davomida past inflyatsiya va hatto deflyatsiya bilan kurashdi. Shu sababli, Yaponiya Markaziy banki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va inflyatsiyani oshirish uchun juda past foiz stavkalarini ushlab turish siyosatini olib bordi, shuningdek, keng miqqosda obligatsiyalar xarid qilish orqali iqtisodiyotga qo'shimcha likvidlik kiritdi.

Rivojlanayotgan davlatlar ham o'z iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda turli inflyatsiya boshqaruv strategiyalarini qo'llaydi. Turkiya, Braziliya va Hindiston kabi mamlakatlar inflyatsiyaning yuqori darajasini nazorat qilish uchun qat'iy pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, ba'zan esa valyuta intervensiylari orqali milliy valyutaning qadrsizlanishining oldini olishga harakat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, inflyatsiyani samarali boshqarish uchun mustaqil markaziy bankning mavjudligi, ochiq ma'lumot siyosati va bozor ishtirokchilari uchun aniq prognozlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatlar inflyatsiya maqsadlarini aniqlab, ularni barqaror darajada ushlab turish uchun pul-kredit mexanizmlarini doimiy ravishda moslashtirib boradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inflyatsiya darajasini boshqarish har qanday davlat iqtisodiyoti uchun dolzarb masala bo'lib, Markaziy bankning bu boradagi roli juda muhimdir. Pul-kredit siyosatini samarali yuritish orqali inflyatsiya darajasini maqbul holatda ushlab turish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, inflyatsiyani samarali nazorat qilish uchun har bir mamlakat o'z iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, Markaziy bank vositalaridan foydalanadi. O'zbekiston ham inflyatsiyani boshqarish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirib, xalqaro tajribadan o'rganishda davom etmoqda.

Maqolada tahlil qilinganidek, Markaziy bank inflyatsiyani jilovlash uchun asosan pul-kredit siyosati vositalaridan foydalanadi. Xususan, foiz stavkalarini belgilash, ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish, majburiy rezerv talablarini tartibga solish va bank tizimining likvidligini boshqarish kabi mexanizmlar qo'llaniladi. Ushbu vositalar inflyatsiyani nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi, biroq ularning samaradorligi iqtisodiy muhitga bog'liq. Misol uchun, inflyatsion targetlash tizimi joriy etilgan bo'lsa-da, tashqi iqtisodiy omillar, masalan, import narxlarining o'zgarishi, global moliyaviy inqirozlar va valyuta kursining beqarorligi inflyatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Markaziy banki inflyatsiyani boshqarish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda ishlarni kuchaytirishi lozim:



Birinchidan, inflyatsion targetlash tizimini yanada takomillashtirish zarur. Inflyatsiyaning kutilmagan o'zgarishlariga tezkor javob berish va prognozlarni yaxshilash uchun statistik tahlil va iqtisodiy modellashtirish tizimini rivojlantirish lozim. Shu orqali Markaziy bank o'zining pul-kredit siyosatini yanada aniq va samarali yo'naltira oladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotdagi strukturaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimdir. Inflyatsiyani faqatgina pul-kredit vositalari orqali boshqarish yetarli emas, balki ishlab chiqarishni kengaytirish, raqobat muhitini rivojlantirish va importga qaramlikni kamaytirish orqali ham inflyatsion bosimni pasaytirish mumkin. Shu sababli, Markaziy bank hukumat bilan hamkorlikda narx barqarorligini ta'minlovchi strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishi lozim.

Uchinchidan, aholining inflyatsiya bo'yicha kutilmalarini boshqarish va Markaziy bank faoliyatining shaffofligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari, tahliliy hisobotlar va jamoatchilik bilan muloqot mexanizmlarini kengaytirish orqali aholining pul-kredit siyosati borasidagi tushunchalarini oshirish mumkin. Bu esa inflyatsion kutilmalarning haddan tashqari o'sib ketishining oldini olishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, xalqaro tajribadan samarali foydalanish lozim. Jahonning yetakchi markaziy banklari tajribasi shuni ko'rsatadiki, inflyatsiyani barqaror ushlab turish uchun tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv talab etiladi. Shu bois O'zbekiston Markaziy banki xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirib, ilg'or tajribalarni joriy etishi kerak.

Umumiy qilib aytganda, inflyatsiya darajasini samarali boshqarish Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayonda pul-kredit siyosatining aniq va puxta o'ylangan strategiyasi muhim o'rinn tutadi. Jahon tajribasi va O'zbekiston sharoiti tahlil qilinganida, inflyatsion targetlash tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, aholining inflyatsiya borasidagi tushunchalarini oshirish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish kabi yo'nalishlar dolzarb ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Markaziy bank bu yo'nalishlarda islohotlarni davom ettirishi lozim, chunki barqaror inflyatsiya darjasini iqtisodiy taraqqiyot va aholi farovonligi uchun muhim shartlardan biridir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" 154-I-sonli Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni
3. A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev. Pul va banklar: Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 448 b.
4. Kamolova L.I. Inflyatsiya va uni tartibga solishning dolzarb muammolari: tizimli yondashuv // Деньги и кредит. 2021. № 3.
5. Friedman M., Schwartz A.J. A Monetary History of the United States, 1867–1960. – Princeton: Princeton University Press, 1963.
6. Friedman M. The Role of Monetary Policy // American Economic Review. – 1968. – Vol. 58(1). – P. 1–17.
7. Friedman M., Friedman R. Free to Choose: A Personal Statement. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1980.



8. Nurzhigitova A.S. Modern inflation. Molodoj uchenyj. 2016;(13):481–482.
9. Jo'rayev T.T., Hamdamov M.A. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2024. 504 bet.
10. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2021. 768 bet.
11. <https://cbu.uz/> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti
12. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
13. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
14. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti